

BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O'RTASIDAGI SAVDO VA DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXIDAN

Adxamova O'g'iloy Zafarjon qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich

Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi hamda Rossiya imperiyasi o'rtasidagi savdo va diplomatik munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Rossiya bosqini arafasigacha bo'lgan davriy chegara oralig'ida ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Orenburg, Doniyolbiy otaliq, Ernazar Maqsud, Yekaterina II, tovar, iqtisodiy aloqalar, eksport, karvon yo'llari.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga qiziqishini kuchayishi Pyotr I hukmronligi davridan (1682 – 1725) kuchaygan. Mang'ishloqlik turkman savdogari Xo'ja Nafas orqali Amudaryo sohilidagi oltin qumlariga boyligi haqida xabarni eshitgan Pyotr I 1717-yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini 3000 dan ortiq qo'shin bilan Xiva xonligiga jo'natadi. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatli chiqmay, uning qo'shinlari Xiva xoni Sherg'ozixon (1714 – 1726) tomonidan qirib tashlanadi. Shundan so'ng Pyotr I 1721-yilda Florio Beneveni boshchiligidagi elchilarni Buxoroga jo'natadi. Italiyalik Rossiya josusi F. Beneveni elchilik niqobidagi o'z safari chog'ida iqtisodiy va geografik ahamiyatga molik yerlarni buxoroliklar sezdir-masdan eslab qolish, Kaspiyga quyiladigan katta-katta daryolar va mavjud kemalar, shaharlar va istehkomlar haqida ma'lumotlar to'plash topshirilgan edi. Bundan tashqari F. Beneveni Buxoro xonligi qal'alari va qo'shinlarining umumiy soni, armiyasining tuzilishi va ahvoli, boshqaruv usuli, Buxoroning Eron, Xiva va Turkiya bilan munosabatlari haqida to'la ma'lumot to'plashi hamda Rossiya bilan Buxoro davlati o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarni aniqlashi bilan birga, O'rta Osiyo daryolaridagi oltin zahiralari haqida ma'lumot to'plashi ham lozim edi. F. Beneveni Buxoroda uch yildan ortiq yashab, Buxoro va Xiva xonliklarining ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyoti, tabiiy boyliklari haqida ma'lumotlar to'plab, 1725-yilda Rossiyaga qaytadi [1. – B. 415-416]. Bu voqealar Pyotr I davrida Rossiyaning O'rta Osiyoga qiziqishi kuchayganini ko'rsatadi. Avval Xivaga yuborilgan harbiy ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa, keyinchalik Buxoroga yuborilgan elchilar orqali hududning siyosiy, iqtisodiy va tabiiy boyliklari haqida batafsil ma'lumot to'plashga harakat qilingan. Bu esa Rossiyaning mintaqaga nisbatan strategik rejalari borligini anglatadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xonliklari, ayniqsa Buxoro amirligi Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda tobora muhim o'rin egallay boshladi. Bunga bir tomondan Rossiya sanoat rivojlanib, yangi xom-ashyo manbalariga ehtiyoj ortgani sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan Osiyoda, xususan Hindiston hududida Angliya ta'sirining kuchayib borayotgani ham turtki bo'lgan. Xususan, Doniyolbiy hukmronligi davrida (1758 – 1785) Buxoroning Rossiya bilan savdo va iqtisodiy munosabatlari yangi bosqichga ko'tarila boshlagan.

XVIII asr oxiridan boshlab Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari, xususan Buxoro xonligi o'rtasidagi savdo aloqalari kuchaygan. Bu jarayonda Orenburg asosiy savdo markaziga aylangan, tovarlar ko'pincha shu yerda ayirboshlangan. Chunki bu vaqtlarda O'rta Osiyo savdogarlari uchun Rossyaning ko'pgina ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilmay, odatda ular o'z mahsulotlarini ko'proq Orenburgda rus sanoat mollariga ayirbosh qilardilar. Shuningdek, Rossiya savdogarlari O'rta Osiyoga kamdan-kam kelgan bo'lib, Rossiya sanoat mahsulotlari O'rta Osiyo bozorlariga asosan mahalliy savdogarlar vositasi bilan olib kelinar edi.

XVIII asrning oxirlarda Rossiya – Buxoro savdosining hajmining ortib borishini 1787 – 1796 yillarda Rossiya va Buxoro o'rtasida olib borilgan tovar aylanmasidan ko'rish mumkin. Masalan, mana shu o'n yil ichida Rossiyadan Buxoroga 3 million 680,9 ming so'mlik mol chiqarilgan bo'lsa, Buxorodan Rossiyaga esa 4 million 150,9 ming so'mlik mahsulot chiqarilgan [2. – B. 11]. Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi bo'lsa ancha katta bo'lib, ayrim davrlarda Buxorodan Rossiyaga chiqarilgan mahsulot qiymati yuqoriroq bo'lgan.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida olib borilgan elchilik aloqalarida ham iqtisodiy munosabatlar asosiy o'rinda turgan. Tarixchi olim Guldona Taniyevaning yozishicha, Mulla Ernazar Maqsud o'g'li juda ko'p marta savdo ishi bilan hamda rasmiy elchi sifatida Rossiya imperatorlari huzurida bo'lgan. Rossiya imperiyasi Tashqi siyosat arxivi fondida 1762-yilning 6-iyunida Rossiya Tashqi ishlar kollegiyasi devonxonasida ro'yxatga olingan bir hujjatda yozilishicha, u 1745-yildan boshlab uzoq yillar Rossiyaga savdo bilan qatnab kelgan. Xususan, u savdo yuzasidan Yelizaveta Petrovna (1741–1761) saroyida, 1762-yilda rasmiy elchi sifatida qozoq xoni Nuralixon nomidan Pyotr III huzurida, 1774 –1775-yilda birinchi marta, 1779 – 1780-yilda ikkinchi marta Buxoro xoni nomidan Yekaterina II (1762 – 1796) saroyida bo'lgan.

1776-yilning 19-dekabrida Yekaterina II Ernazar Maqsud o'g'lining Kaspiy orqali savdoni rivojlantirishi uchun 5 yil muddatga 10 ming rubl miqdoridagi mollar bilan bojsiz savdo qilishiga ruxsat bergani. Hatto imperator unga Kaspiy dengizida savdo qilishi uchun bitta kema ham sovg'a ham qilgan [3. – B. 77].

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni o'rganish masalasi imperiya davrida o'ziga xos qarashlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Xususan, XVIII asrning 70-yillarida Buxoro amirligidan Rossiya imperiyasiga Ernazar Maqsud o'g'li echiligi yuborilgan. Davr tadqiqotlarida ushbu elchilik natijalari haqida so'z yuritilish jarayoni Yekaterina II tomonidan tortiq qilingan hadyalar hisobiga Buxoroda madrasa bunyod etilganligi faxr bilan ta'kidlanishi bilan kifoyalanilgan. Mazkur davr adabiyotlarida shakllangan bunday qarash keyingi davrlarda ham davom ettirib kelindi va Ernazar elchi madrasasining qurilishi Buxoro – Rossiya elchilik munosabatlarida do'stlik va madaniy aloqalarga misol sifatida ko'rsatildi. Ammo, shu paytga qadar mazkur ma'lumotlar hujjatlarga asoslanmagan bo'lib, bunday qarashlarni O'zMA fondida saqlanadigan vaqf hujjati inkor qiladi. Unda mazkur madrasa Ernazar Maqsud o'g'lining shaxsiy mablag'i hisobiga qurilganligi ko'rsatilgan [4. – B. 15].

Mazkur masala shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixda ko'pincha bir tomonlama talqin qilingan. Xususan, Ernazar Maqsud o'g'li elchiligi natijasida madrasa qurilgani uzoq vaqt Yekaterina II hadyasi bilan bog'lab kelindi. Biroq arxiv hujjatlari bu madrasa aslida elchining o'z mablag'i hisobiga bunyod etilganini ko'rsatadi. Bu esa tarixiy voqealarni hujjatlar asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

XIX asrning o'rtalarida chor Rossiyasi imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish harakatlari Qo'qon xonligidan boshlanib, Buxoro amirligini qo'lga kiritishga urinish bilan davom ettirildi. Amirlikning harbiy kuchi Qo'qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar tufayli zaiflashgan va Rossiya imperiyasi uchun qulay vaziyat yuzaga kelgan edi.

1866-yil yanvar oyining oxirida Mixail Chernyaev Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 8 – 9 ming kishilik shahar himoyachilarining ko'rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo'ladi. 1866-yil mart oyida Chernyaev Peterburgga chaqirib olinadi, uning o'rniga general Dmitriy Romanovskiy yuboriladi.

Buxoro amirining 100 ming kishilik qo'shini bilan Romanovskiy qo'mondonligidagi chor Rossiyasi qo'shinlari o'rtasida 1866-yil 8-mayda Erjarda bo'lgan jangda rus qo'shinlari g'alaba qozonadi. 24-mayda rus askarlari Xo'jandda ham g'alabaga erishadilar.

Buxoro amiri bilan muzokaralarda kelisha olmagach, Romanovskiy 1866-yil 2-oktyabrda Buxoro amirligiga qarashli O'ratepa qal'asini, 18-oktyabrda esa Jizzaxni bosib oladi. Qizig'i shundaki, Buxoro amiri rus qo'shinlariga qarshi birgalikda jang qilishni Qo'qon xoni Xudoyorxonga taklif qilganda, u turli bahonalar bilan bu ishga bosh qo'shmaydi [5. – B. 188-189].

Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, o'tmishda Buxoro amirligi tashqi siyosati va savdo aloqalari ko'proq davlat manfaatlarini saqlab qolish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda mintaqada o'z mavqeini mustahkamlashga qaratilgan edi. Rossiya bilan olib borilgan diplomatik va savdo munosabatlari esa keyinchalik mintaq taqdiriga jiddiy ta'sir ko'rsatgan tarixiy omillardan biriga aylandi.

Bugungi kunda esa mustaqil O'zbekiston o'z tashqi siyosatini o'z manfaatlari asosida, tenglik va hamkorlik tamoyillariga tayangan holda olib bormoqda. Tarixiy tajriba bizga shuni anglatadiki, davlat mustaqilligi, puxta diplomatiya va iqtisodiy hamkorlik har qanday davrda mamlakat taraqqiyotining muhim omili bo'lib kelgan. Shu sababli o'tmishdagi diplomatik aloqalarni o'rganish bugungi kun siyosiy va iqtisodiy yo'limizni yanada to'g'ri belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат бошқаруви ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди нашриёти, 2002.
2. Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Т.: Фанлар Академияси нашриёти, 1957.
3. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII – XIX asr o'rtalari). – Т.: “Tamaddun”, 2022.
4. Hamroyev S. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik munisabatlari tarixshunosligi: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
5. To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona, 2020.
6. <https://www.ziyo.uz>